



3-shu'ba:

GLOBALLASHUV DAVRIDA MIGRATSION JARAYONLARNING MADANIYATLAR O'ZGARISHIDAGI O'RNI

РОЛЬ МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В ИЗМЕНЕНИИ КУЛЬТУРЫ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

THE ROLE OF MIGRATION PROCESSES IN THE CHANGE OF CULTURES IN THE ERA OF GLOBALIZATION



MIGRATSIYA JARAYONLARINING MADANIYATLARARO INTERGRATSIYAGA TA'SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR



B.A.Talapov

Namangan davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori.

Annotatsiya: maqolada globallashuv sharoitida migratsiya jarayonlari, uning migrantlar va mahalliy aholi o'rtasida madaniyatlararo integratsiyaga ta'siri tadqiq qilinadi, bu jarayonlardagi to'siqlar va ularni bartaraf qilish yo'llari xususida ilmiy asoslangan mulohaza va takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: migratsiya, migratsion jarayonlar, madaniyatlararo integratsiya, etnosfera, madaniyatlar transformatsiyasi, mehnat migratsiyasi, ta'lim migratsiyasi

Bugungi globallashuv jahon miqyosida migratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirdi, uning hududiy jihatdan kengaytirdi. Keyingi yillarda migratsiya jarayonlari yer yuzining barcha hududlariga birdek tarqalib, soha va ko'lami kengayib bormoqda.

Migratsiya bugungi kunda global miqyosda o'sib borayotgan jarayonga aylandi. Masalan, Xalqaro migratsiya tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda 2023-yilda dunyo bo'yicha migrantlar soni 281 mln. kishini yoki yer yuzi aholisini 3,5% tashkil etgan. Eng ko'p migrantlar Hindiston (18 mln), Meksika (12 mln), Xitoy (11 mln), Rossiya (10 mln), O'zbekiston (2 mln. 346 ming) kabi davlatlarga to'g'ri keladi.¹

Migratsiya jarayonlari jamiyat madaniyati va madaniy aloqalarining o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'kidlash joizki, birinchidan, migratsiya mahalliy urf-odatlar, til va san'atni boyitishi mumkin bo'lgan turli madaniyatlarning aralashishiga yordam beradi. Ikkinchidan, muhojirlar ko'pincha mahalliy aholi orasida turmush tarzini va idrokini o'zgartirishi mumkin bo'lgan yangi g'oyalar va amaliyotlarni olib kelishadi. Uchinchidan, an'anaviy qadriyatlar yangilari bilan to'qnashganda migratsiya madaniy ziddiyatlarga yoki keskinliklarga ham olib kelishi mumkin. Biroq, uzoq muddatda muvaffaqiyatli madaniy hamkorlik ko'proq bag'rikenglik va o'zaro tushunishga olib kelishi mumkin.

¹<https://www.un.org/ru/global-issues/migration#:~:text=>

Prezident Shavkat Mirziyoyev migrantlarning madaniyatlararo integratsiyasi ijtimoiy barqarorlik va jamiyat taraqqiyotini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi. Uning ta'kidlashicha, muvaffaqiyatli integratsiya madaniyat va urf-odatlariga o'zaro hurmatni, shuningdek, turli etnik guruhlarining o'zaro munosabatlari uchun sharoit yaratishni talab qiladi.

Bugungi kunda migrantlarning o'zaro muloqoti va madaniy integratsiyasiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Eng avvalo, asosiylarini keltirib o'tsak:

1. Til to'siqlari: qabul qiluvchi mamlakat tilini bilmaslik aloqa va integratsiyaga to'sqinlik qiladi.

2. Madaniy farqlar: turli urf-odatlar tushunmovchilikka olib kelishi mumkin.

3. Ijtimoiy izolyatsiya: muhojirlar ko'pincha yopiq jamoalarda qoladilar, bu esa mahalliy aholi bilan muloqot qilishni qiyinlashtiradi.

4. Iqtisodiy qiyinchiliklar: cheklangan resurslar ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etishga va integratsiyaga to'sqinlik qilishi mumkin.

5. Huquqiy omillar: muhojirlar to'liq yoki noaniq huquqiy holati organlari qo'rquv olib kelishi mumkin.

6. Stereotiplar va tarafkashlik: mahalliy aholining salbiy munosabati keskinlik va aloqa uchun to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bu omillar muhojirlarning integratsiyalashuvi va ularning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini murakkablashtiradi.

Endilikda aksariyat rivojlanayotgan davlatlar migrantlarni yetkazib beruvchi, o'tkazuvchi (tranzit) bo'lsa, rivojlangan davlatlar ularni qabul qiluvchilik maqomiga ega bo'ldi. Ayniqsa, mehnat migratsiyasidagi shiddatli dinamika ikkala tomon uchun ham birday ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga sabab bo'lmoqda.

Bugungi postindustrial jamiyatda xalqlarning turli maqsad va omillar asosida bir hududdan ikkinchi hududga ko'chib o'tishi, mazkur hududlardagi xalqlar bilan qo'shib borishi mamlakatlarning ishlab chiqarishdan tortib, demografiyasigacha ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'chib borgan aholining muomala odobi, huquqiy madaniyatida bo'layotgan o'zgarishlar migrantlarni yetkazib berayotgan jamiyat etosferasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Mazkur jarayonlarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish, albatta, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda.

So'nggi yillarda migratsiya masalasi xorijiy va mamlakatimizning yetakchi olimlarining tadqiqotlarida o'zining ilmiy talqinini topayotganligini e'tirof etish joiz. Xususan, migratsiya jarayonlarining shaxs axloqiy-huquqiy madaniyatiga transformatsiyasi, migratsiya jarayonining madaniyatlar transformatsiyasidagi o'rni, musofirlar axloqiy-huquqiy munosabatlaridagi o'zgarishlar, ularning ijtimoiy adaptatsiyasining ijobiy hamda salbiy oqibatlari tadqiq qilinmoqda.¹

Ta'kidlash joizki, migrantlar ko'chib borgan jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi, begonalashmasligi va erkin faoliyat olib borishi uchun u joydagi mavjud axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishi, ayniqsa ko'chib borgan jamiyatdagi xalq tilini o'rganishi, uning qadriyatlarini bilishi muhim hisoblanadi.

Migrant o'zi uchun tanish bo'lmagan hududga borayotgan o'sha yerning huquqiy me'yorlarini bilishi lozimligi, mamlakatimiz yoshlarining migrant sifatida xorijga chiqishi jarayonlari ko'payotganligi sharoitida ularning huquqiy ongini va madaniyatini oshirish zarur. Avvalo buning uchun xorijda ta'lim yoki mehnat migranti bo'lishi mumkin bo'lgan yoshlarimizni davlatimizning qonunchilik asoslari bilan yaqindan tanishtirish, o'rgatish orqali ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish zarurligi, huquqiy ongi rivojlangan migrant boshqa xalqlar huquq me'yorlarini osonroq anglab, o'z huquqiy madaniyatiga singdira olishini ta'kidlash joiz.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, xalqaro migratsiya jarayonlari, migrantlar va ularni qabul qiluvchi mamlakatlar uchun, jiddiy sotsial muammolarni vujudga keltirmoqda:

¹ Норкулов Олим Насимовичнинг “Ўзбекистондаги миграция жараёнларининг шахс ахлоқий ва ҳуқуқий маданиятига трансформацияси” мавзусидаги фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражаси учун ёзилган диссертацияси, 2024 йил

- chunonchi, turli davlatlaridan kelayotgan migrantlar hamda tub-joy aholining, ularga begona madaniyat va qadriyatlarga "ko'nikish effektini" shakllantirish;
- mehnat muhojirlarining ushbu mamlakatlarda munosib ish topishi;
- davlatlar barqaror taraqqiyoti va xavfsizlikni ta'minlashi bilan bog'liq etnomadaniy qadriyatlar integratsiyasi;
- "begona" ommaviy muhojirlar oqimi, bu jamiyatlar etnomadaniy tuzilishi va ijtimoiy munosabatlar transformatsiyasi o'zgarishlariga faol ta'sir o'tkazish keltirib o'tish mumkin.

Bugungi kunda ish beruvchi uchun innovatsion texnologiyalarni tez va mukammal o'zlashtirishga qodir, rejalashtirilgan natijalarga erishishni ta'minlay oladigan, o'z kasbiy faoliyatini muttasil takomillashtirishga intilgan, innovatsion xatti-harakatni namoyon etuvchi, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan mutaxassislariga talab tobora ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda migrantlarning o'rtacha yoshi yuqori ko'rsatkichlarga qarab o'sishda davom etmoqda. Bugungi kunda xorijga ishga o'tlangan fuqarolarning kasbiy va professional mahorati yuqori bo'lsagina o'zgacha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga tezroq moslasha oladi.

Migratsiya jarayonlari ma'lum ma'noda O'zbekiston Respublikasidagi axloqiy-huquqiy madaniyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Yangi O'zbekistonda migratsiya sohasidagi islohotlarning mohiyati, migratsiyaning jamiyatimizda qaror topgan milliy ma'naviy qadriyatlar tizimining transformatsiyasiga sabab bo'lmoqda.

Ta'kilash joizki, O'zbekiston Respublikasida mehnat migrantlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va reintegratsiya qilish vazifalarini amalga oshirishda xavfsiz va qonuniy migratsiya tizimi joriy etilmoqda va bu uchta yo'nalishda amalga oshirilmoqda:

1. Xorijda mehnat faoliyati bilan shug'ullanish niyati bo'lgan fuqarolarni kasbiy tayyorlash va xorijiy tillarni o'rganishlarida ko'maklashish;
2. Xorijda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan O'zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoyalash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
3. Mehnat migratsiyasidan o'z yurtiga qaytganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va reintegratsiya qilish, jumladan bandligini ta'minlash.

Bugungi globallashuv sharoitida esa migratsiyaning turi va ko'lami tobora kengayib bormoqda, industrial va postindustrial jamiyatlar hamda ulardagi erkinlik, adolat, farovonlik haqidagi targ'ibotlar sababli shu hududga muhojirlar oqimini oshmoqda, turli madaniy qatlam vakillaridan iborat megapolislar paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shuningdek, muhojirlar o'zlari tug'ilib-o'sgan donor jamiyat axloqiy-huquqiy muhitning vakillari bo'lish bilan bir qatorda immigrant xalqning axloqiy qadriyatlari, huquqiy normalari, ideallarining tashuvchisi vazifasini ham o'tamoqdalar.

Nazarimizda, migrantlar va mahalliy aholi o'rtasida madaniyatlararo integratsiyani rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

migratsiya jarayonlarini tartibga solishning huquqiy asoslarini yanada kengroq va chuquroq tadqiq etish lozim, bu borada migrantlarni ijtimoiy himoyasini tashkil etish yuzasidan xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda yaratilishi zarur bo'lgan huquqiy makonni kengaytirish masalalariga e'tibor qaratish lozim. Xorijiy davlatlar bilan tuzilayotgan hamkorlik shartnomalarida migrantlar masalasiga alohida o'rin berish lozim bo'ladi;

migrantlar uchun qulaylik yaratish maqsadida muxojirlar ko'proq boradigan davlatlarning huquqiy me'yorlari yig'indisidan tashkil etuvchi kichik hajmdagi broshyuralar nashr etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi;

muhojirlar uchun mamlakat tarixi va madaniyati bo'yicha kurslarni, shuningdek, mahalliy aholi uchun madaniyatlararo muloqot kurslarini joriy etish;

migrantlarning integratsiyasini osonlashtirish va aloqani yaxshilash uchun bepul til o'rganish kurslarini kengaytirish;

madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtirish uchun festivallar, ko'rgazmalar va sport musobaqalari kabi qo'shma tadbirlarni tashkil etish;

migrantlarga yangi muhitga moslashishda yordam berish uchun psilogik maslahat va yordam guruhlarini taqdim etish;

NNT bilan hamkorlikda integratsiya va tajriba almashishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish uchun nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

mahalliy aholini o'z an'analari va madaniyatini baham ko'rishlari uchun loyihalar va tashabbuslarga kengroq jalb qilish;

migratsiyaning ahamiyati va madaniy almashinuvning afzalliklari to'g'risida xabardorlikni oshirish kampaniyalarini o'tkazish;

migrantlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy integratsiyani yaxshilash uchun migrantlarga tegishli korxonalarini qo'llab-quvvatlash.

Ushbu chora-tadbirlar turli madaniyatlar o'rtasidagi yanada uyg'un munosabatlar va o'zaro tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M.. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. - 440 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 446 b.

3. Isoqov L. Migratsiya jarayonlarini boshqarishning zamonaviy modellari // Yurist axborotnomasi. – Toshkent, 2020. – T.1. – №. 4.

4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. –T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2023. 740 b.